

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI KASBIY FAOLIYATDA QO'LLASH

Mamasodiqova Saidaxon Soyibjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti

E-mail: shukyul49@gmail.com

Saksonboyeva Irodaxon Iskandar qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: shukurullohxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunga kelib axborot texnologiyalari kundan kunga jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu jadal rivojlanish jarayonida bu texnologiyalar qamrab oladigan sohalar, ya'ni kasbiy faoliyat ham kengayib bormoqda. Yurtimizda kechayotgan turli sohalardagi jadal iqtisodiy-siyosiy jarayonlar, xususan ta'lim tizimi, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va hatto chorvachilikni rivojlantirishda ham axborot texnologiyalarini qo'llash ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada yuqorida sanab o'tilgan sohalardan eng dolzarbi, ya'ni – O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash ahamiyati va afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, EHM, IT, kompyuterlar, dasturlar, dasturlash, pedagogik soha, texnika sohasi, metodika, masofaviy ta'lim, video darslar.

АННОТАЦИЯ

Сегодня информационные технологии стремительно развиваются с каждым днем. В ходе такого стремительного развития расширяются и области, охватываемые этими технологиями, то есть профессиональная деятельность. Информационные технологии применяются в развитии стремительных экономических и политических процессов в различных сферах нашей страны, в частности, в системе образования, медицине, сельском хозяйстве, сельском хозяйстве и даже животноводстве. В данной статье рассматривается наиболее актуальное из вышеперечисленных направлений, а именно важность и преимущества использования информационных технологий в системе образования Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Информационные технологии, ЭУМ, ИТ, компьютеры, программы, программирование, педагогическая сфера, техническая сфера, методика, дистанционное образование, видеоуроки.

ABSTRACT

Information technologies are rapidly developing day by day. In the course of this rapid development, the fields covered by these technologies, that is, professional activities, are also expanding. Information technologies are being applied in the development of the rapid economic and political processes in various fields in our country, in particular, the education system, medicine, agriculture, agriculture and even animal husbandry. This article considers the most relevant of the above-mentioned areas, that is, the importance and advantages of using information technologies in the educational system of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Information technologies, EHM, IT, computers, programs, programming, pedagogical field, technical field, methodology, distance education, video lessons.

Axborot texnologiyalari atamasining ingliz tilidagi qisqartmasi ya’ni “IT” o‘zbek tilida ham bir necha yillar ichida paydo bo‘lib qoldi. U holda Axborot texnologiyalari yoki IT nima va u qanday vazifani bajaradi? Axborot texnologiyalari – bu kompyuter tizimlari, dasturiy ta’midot, dasturlash tillari, ma’lumotlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlashni o‘z ichiga olgan tegishli sohalar to‘plami. Axborot texnologiyalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bir qismini tashkil qiladi. Axborot texnologiyalari tizimidir[1]. Ular kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo‘ldi. XX asr ilm-fan inqilobi texnika va texnologiyalarning rivojlanishini jadallashtirib yubordi. Elektron hisoblash mashinalarining yaratilishi va uning rivojlanishini tez sur’atda borishi natijasida kompyuterlar ixtiro qilindi. Komyuterlar esa hozirgi kundagi axborot texnologiyalarining asosini tashkil etadi. O‘tgan asrda zamonaviy axborot texnologiyalarining sanoqli turlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib bunday texnologiyalarning turlari juda ham ko‘pligidan turmush tarzimizning ajralmas bo‘lagiga aylanib ulgurdi.

Xususan, davlat tashkilotlari faoliyatlarini yagona elektron tizimga bog‘lash, ya’ni elektron hukumatni tashkil etilishi, davlat xizmatlarining onlayn amalga oshirilishi, aholiga xizmat ko‘rsatish tashkilotlariga navbatlarga yozilishdan tortib oliy ta’lim muassasasiga hujjat topshirishda axborot texnologiyalarni qo‘llab onlayn amalga oshirilmoqda. Shular bilan bir qatorda respublikamizning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etilishi, har bir sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda [2]. Bu islohotlar ko‘plab sohalardagi mutaxassislarining kasbiy faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, ta’lim tizimida ham axborot texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati katta hisoblanadi. Maktablarda kundalik.com platformasini joriy etilishi, oly ta’lim muassasalarida Hemis tizimining qo‘llanilishi,

onlayn kurslarning kundan kunga takomillashib borishi axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoni rivojiga samarali hissa qo’shayotganligiga misol bo‘la oladi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, mamlakatda axborot texnologiyalarining rivojlanish darjasini qaysi davlatda yuqori bo‘lsa, shu davlatning iqtisodiy barqarorligi ham yuqoridir. Ushbu fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, davlatning rivojlanishida axborot texnologiyalardan yuqori darajada foydalanishning o‘rni beqiyos va har bir kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur ekan. Shuni ta’kidlash joizki, har bir soha mutaxassislari avval tanlagan mutaxassisliklarida ta’lim olishadi, bundan shu kelib chiqadiki, axborot texnologiyalarni dastlab ta’lim tizimida keng joriy qilish kerak.

Ushbu texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, uni ta’lim tizimiga tadbiq qilish, ta’lim sifati va samaradorligini bir necha barobarga oshirishga imkon beradi. Ma’lumki, 2022-yildan olyi ta’lim tizimida bir necha o‘zgarishlar amalga oshirildi, kunduzgi, kechki, sirtqi ta’lim shakllari bilan bir qatorda masofaviy ta’lim shaklini ham joriy qilinishi axborot texnologiyalari bo‘lgan talabni oshishiga sabab bo‘ladi. O‘qitishning onlayn shakli hozirgi kunda qator xorijiy olyi ta’lim muassasalarida o‘z samarasini bermoqda. Xususan, yurtimizda ham hozirgi kunda ko‘plab onlayn kurslarni topish mumkin. Olyi ta’lim tizimida ham masofaviy ta’lim shaklini joriy qilinganligi sifatli ta’lim talablariga javob beradigan video darslarni tashkil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Sifatli ta’lim – ta’limning ko‘plab xillardagi talablar, ehtiyojlar, maqsadlar, me’yorlarga muvozanatlashgan holdagi mosligi. Ta’limning ierarxik tashkil etilgan, ijtimoiy ahamiyatli mazmuniy xossalaring tizimli yig‘indisidir[3]. Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu talabga javob bergen holda, ko‘plab sohalarni qamrab oluvchi, yuqori sifatli, tushunarli, samarali video darslarni yaratish zarur. Bu jarayonni amalga oshirishda quyidagi vazifalar samarali hal qilinishi muhim:

Birinchidan, ma’lumki, axborot texnologiyalarida o‘zaro aloqani tashkil etishda internetdan foydalilanadi, yuqori sifatli aloqa uchun yuqori internet tezlikni tashkil qilish zarur. Internet tezligi bilan bir qatorda, talabalar uchun undan foydalanish narxini ham arzon qilish qilish kerak.

Ikkinchidan, har bir institutda o‘tiladigan fanlardan, shu fan bo‘yicha respublikadagi eng kuchli professor o‘qituvchilar bilan fan dasturlari, rejalarini va materiallarini tashkil etish lozim;

Uchinchidan, tuzilgan fan dasturi asosida jahon talablariga javob beradigan, tushunarli, o‘zida animatsiya yoki shu kabi materiallardan foydalangan holda talabaga maksimal darajada tushunarli bo‘ladigan videodarslarni shakllantirish;

To‘rtinchidan, barcha talabalar foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan va o‘zida har bir sohani qamrab olgan yagona masofaviy ta’lim platformasini tashkil etish. Bu platformaga har bir fandan shakllantirilgan videodarslar yuklanadi. Masalan: Adabiyotshunoslik fanidan to mexanika, elekrotexnika kabi texnika fanlaridan yaratilgan videodarlar joylash. Bunda talaba o‘z xohishiga ko‘ra xohlagan fanidan darslarni o‘zlashtirishi mumkin. Ya’ni ijtimoiy sohada ta’lim oluvchi talaba texnika fanlariga qiziqishi bo‘lsa, texnika fanlari darslarini ham o‘zlashtira oladi.

Beshinchidan, talabalarning savol va murojaatlariga javob beradigan muhitni yaratish, talabalar bilan doimiy aloqada bo‘lish, videokonferens aloqa tizimlari, virtual zallarni tashkil etish orqali talaba bilan doimiy aloqani ta’minlash. Shu bilan birga darslarni o‘zlashtirganlik darajasini ham baholovchi resurlarni ham shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda axborot texnologiyalari keng sohani o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, undan ko‘plab kasbiy faoliyatda foydalanish mumkin. Ma’lumki, har qanday sohani rivojlantirish uchun dastlab ta’lim tizimini rivojlantirish kerak. Axborot texnologiyalaridan dastlab ta’lim berish jarayonida samarali foydalanish kerak. Ommaviy axborot vositalarida ham ko‘plab tadqiqotlarda ham hozirgi kunda odamlarda smartfonlarga qaramlikning vujudga kelishi ortib bormoqda, achinarli bunday foydalanuvchilar qatorida talabalar ham bor. Ma’lumki, smartfonlar axborot texnologiyalarining eng keng tarqalgan qurulmasidir. Uning imkoniyatlaridan samarali foydalansak, bu qurulmalar ilm olishga zarar beruvchi emas, balki ko‘mak beruvchi bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1) O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi - A harfi, “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, Toshkent
- 2) <https://lex.uz/docs/5030957>
- 3) <https://doi.org/10.5281/zenodo.7444816>